

G‘O‘ZANI TOMCHILAB SUG‘ORISH

Qodirova Shaxribonu Normurodovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali Agrobiotexnologiya kafedrasida assistenti

Qandaxarova Sarvinoz

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali Agrobiotexnologiya kafedrasida 1-kurs talabasi

E-mail: info@svmitf.uz.qodirovash

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri, suv resurslari zaxiralaridan unumli foydalanish va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdagi tomchilatib sug‘orishning ahamiyati haqida amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Agroinfo, agrosanoat, yer usti suvlari, sug‘orish, g‘o‘za, hosil pishib yetilish davri, vegetatsiya davri.

Bugungi kunda dunyoda suv resurslari zaxirasi cheklangan bo‘lib, undan oqilona foydalanishni taqozo etmoqda. Yer usti suvlari manbalari zaxirasidan samarali foydalanish maqsadida ko‘pgina mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun yer osti suvlarini ishlatish darajasi kengayib bormoqda. Hindistonda umumiy sug‘oriladigan ekin maydonlarining 66 foizi yer osti suvlari ulushiga to‘g‘ri keladi. Saudiya Arabistoni va Livanda yer osti suvlari asosiy ekin maydonlarini sug‘orish uchun yagona manba hisoblanadi. Italiyada o‘n minglab gektar ekin maydonlari yer osti suvlari bilan sug‘oriladi. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda nafaqat respublikamizda balki dunyo bo‘yicha sug‘orish suvlarini tejash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyoda qishloq xo‘jaligida chuchuk suv taqchilligi sharoitida ekinlarni ilmiy asoslangan sug‘orish texnologiyalari va tartiblarini qo‘llash, qo‘shimcha suv manbasi sifatida kollektor-zovur suvlaridan hamda chiqindi suvlardan foydalanish orqali daryo suvlarini tejash imkoniyati yaratilmoqda. Suv resurslari taqchilligi ekinlar hosildorligi va uning sifatiga o‘z ta‘sirini sezilarli darajada ko‘rsatmoqda. Shu jihatdan, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida intensiv usullarni, eng avvalo, suv tanqisligida g‘o‘zaning suv tejovchi texnologiyasini yanada takomillashtirish orqali suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni takomillashtirishda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha izlanishlar dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda bugungi kunda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda tomchilatib, egatga plyonka to'shab va o'qariqlar o'rniga ko'chma egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Buning natijasida sug'orish suvlari tejalishi, yerlarning meliorativ holati yaxshilanishi, sizot suvlarining sathi yaqin joylashgan maydonlar kamayishi va provardida hosildorlikning oshishiga erishilmoqda. Tomchilab sug'orish usulining afzalliklari: egat orqali sug'orishga nisbatan 40-50% gacha sug'orish suvi tejaladi; suvning filtratsiya va bug'lanish orqali isrof bo'lishi keskin kamayadi; suv oqovaga chiqmaydi, irrigatsiya eroziyasi kuzatilmaydi va tuproq egat bo'ylab bir tekislanadi; g'o'zaning ildiz tizimi tarqalgan tuproq qatlami optimal va barqaror namlanib, mineral o'g'itlar suvda erigan holda berilishi hisobiga oziqlantirish samaradorligi oshadi; g'o'za qator orasiga ishlov berish (kultivatsiya) sonini qisqarishi hisobiga tuproqning zichlashishi kamayadi, strukturasi donador hamda mayin bo'ladi; kam me'yorlar bilan va tez-tez sug'orish natijasida yer osti suvlari sathi ko'tarilishi kamayadi va ikkilamchi sho'rlanishiga barham beriladi; suvchilar soni maqbullashadi va sug'orishning FIKi 10-15% ga oshadi. Paxtadan qo'shimcha 7-10 s/ga gacha hosil olish imkoniyati yaratiladi. Tomchilatib sug'orish usulining ayrim kamchiliklari va bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar: qurilish-montaj ishlarida faqat sifatli mahsulotlardan foydalanish va eksplutatsiya (g'o'zani sug'orish) jarayonida domiiy nazorat o'rnatish; quvur va tomizgichlarda turli cho'kmalar va erimagan karbonatlar bilan ifloslanishi va tiqilib qolishini oldini olish uchun qo'shimcha filtrlarni o'rnatish; begona o't bosgan maydonlarda tanlab ta'sir etuvchi gerbitsidlarni suv bilan birga qo'llash; dalada ekin turi o'zgarganda TSTini o'sha ekinga mos holda qayta o'rnatish lozim. Ayni paytda Qashqadaryo viloyatida ham 13 ta fermer xo'jaligining 293 gektar paxta maydonida tomchilatib sug'orish texnologiyalari joriy etilib, suv resurslaridan oqilona va tejamli foydalanishga erishilayapti. G'uzor tumanidagi "G'uzor agro fayz" fermer xo'jaligi bu boradagi tashabbuskorlardan biri. Umumiy yer maydoni 500 gektarni tashkil etadi, Shundan 170 gektarda g'alla parvarishlagan bo'lsak, 110 gektar yer maydoniga paxta ekilgan. Qolgani bog'. Bu yil sinov tariqasida 20 gektar paxta maydonida tomchilatib sug'orish texnologiyasini o'rnatilgan. Tomchilatib sug'orilayotgan maydondagi ekinlar bilan an'anaviy usulda sug'orilgan g'o'zalar o'rtasida sezilarli farq mavjud.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.K.B. Rustamova, K.S. Sobirov , M.M. Najmiddinov Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 7 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 2022.
- 2.Atamurodov, B. N., Sobirov, K. S., & Najmiddinov, M. M. (2022). BASICS OF FARMING ON SALINE AND SALINE-PRONE SOILS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(6), 725-730.
- 3.Atamurodov, B. N., Sobirov, K. S., & Najmiddinov, M. M. (2022). USE OF RESOURCE-EFFICIENT IRRIGATION TECHNOLOGY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Science and innovation, 1(D2), 96-100.
4. AGRO.UZ : <https://www.agro.uz/tomchilatib-sug-orishning-g-o-zaga-foydali-va-zararli-taraflari-bormi/>
5. <https://qashqadaryo.uz/oz/sahovat>